

O'ZBEK ADABIYOTIDA O'CHMAS IZ QOLDIRGAN ALEKSANDR FAYNBERG.

Dadabayeva Hayotxon Faxridin qizi.

O'ZDJTU, 3-kurs talabasi,

Ingliz tili 2-fakulteti.

Annotatsiya: O'zbek she'riyatida o'zining o'chmas izini qoldirgan Aleksandr Faynberg o'zbek kitobxonlarining qalbidan chuqur joy olgan. O'zining she'riy to'plamlari, tarjimalari bilan o'zbek, rus va ko'plab xalqlarning e'tiborini qozongan. Aleksandr Faynberg rus millatining vakili bo'lsa ham o'zbek yuragiga ega shoir. Ijodida barqarorlik uncha kuzatilmagan bo'lsa ham yozib qoldirgan asarlari shoirning chuqur ma'naviyatga ega ekanligidan darak beradi. Faynberg o'zining tarjimalari bilan o'zbek adabiyotining imkoniyatlarini ochib bergan.

Kalit so'zlar: shoir, tarjimon, senarist, o'zbek yuragi, ijod, yozuvchi.

Annotation: Alexander Feinberg who left his indelible mark in Uzbek poetry, has a deep place in the language of Uzbek readers. He won the attention of Uzbek, Russian and many other people with the translations of his poetry collections. Although, Feinberg is a representative of the Russian nation, he is a poet with an Uzbek heart. Although, stability was not observed in his work, his written works indicate that poet has a deep spirituality. Feinberg revealed the possibilities of Uzbek literature with his translations.

Key words: poet, translator, screenwriter, Uzbek heart, creativity, writer.

Аннотация: Александр Фейнберг оставивший неизгладимый след в узбекской поэзии, занимает глубокое место в языке узбекских читателей. Своими поэтическими сборниками и переводами он завоевал внимание узбеков, русских и многих других народов. Александр Фейнберг хотя и является представителем русской нации, но поэтом с узбекским сердцем. Хотя в его творчестве не наблюдалось стабильности, его письменные произведения свидетельствуют о глубокой духовности поэта. Фейнберг своими переводами раскрыл возможности литературы узбекского народа.

Ключевые слова: поэт, переводчик, сценарист, узбекское сердце, креативность, писатель.

“Adabiyot-xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz”.

(Shavkat Mirziyoyev Miromonvich).

Nafaqat shoir, ijodkor balki mohir tarjimon, senarist sifatida o'zbek xalqi tomonidan ardoqlanib kelayotgan O'zbekiston xalq shoiri Aleksandr Faynberg 1939-yilda 2-noyabrda Toshkentda tavallud topgan. Aleksandr Faynberg yeti yillik maktabni tamomlagach, Toshkent topografiya texnikumiga o'qishga kirgan. Texnikumni tamomlab har bir yigit uchun sharaf bo'lmish harbiy xizmatni Tojikiston diyorida o'tagan. Harbiy xizmatdan so'ng Toshkent universitetini tugatib, filologiya fakultetining jurnalistika yo'nalishining sirtqi bo'limida tahsil olgan va talabalar gazetasida o'z faoliyatini yurg'azgan. Aleksandr Faynberg o'zbek kitobxonlari, she'riyat ixlosmandlari uchun qadrlil bo'lib uning o'ndan ortiq she'riy to'plamlari Toshkent, Moskva va Sankt-Peterburgda nashr etilgan. Shoir o'z davrida mohir senarist ham bo'lgan va uning yettita badiiy filmlar senariysi o'ziga xosligi va hayotiyiligi bilan ajralib turadi. Faynberg yigirmadan ortiq multfilmlar, nasriy asarlar muallifidir. Uning asarlari o'zbek o'quvchilari qalbidan tobora joy olib kelmoqda. Arkadevich o'z zamonasining ilg'or tarjimonlaridan bo'lgan. U o'zbek she'riyatining zabardast shoirlari Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Matchon kabi shoirlarning she'rlarini tarjima qilgan. Taniqli o'zbek shoiri Abdulla Oripov "Aleksandr Faynbergning ijodiga kelsak, barcha baland so'zlar haqiqatning yuzdan bir qismini ham aks ettirmaydi, chunki u aslida noyob shoir va tarjimon, jahon darajasidagi yozuvchi. Rus tilida so'zlashadigan yozuvchilardan hech biri bizning quyoshli diyorumizda samimiy qo'shiq kuylashi mumkin emas"-deb ta'riflagan edi.

O'zbekiston xalq shoiri, kinomatografiya uyushmasi a'zosi Aleksandr Faynberg Rossiya prezidenti farmoni bilan Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi madaniy aloqalarga munosib hissa qo'shganligi uchun Pushkin medali bilan taqdirlangan. Shoirning she'riy to'plamlari qo'lma-qo'l bo'lib, matnlari asosida filmlar namoyish etildi.

Meni deya chekma iztirob,
Yashayapman mag'rur, qaddi tik.
Yelkam tutar sobit ishonchim,
Yorug' kunlar qarshimda-tetik.

Kengliklarda goh yomg'ir, shamol,
O'rlar bo'm-bo'sh dala o'tinchi.
Yuragimga bargsiz shoxlardan
Mo'ralaydi umid sog'inchi.

Ishonaman, umid uzilmas,
Zinalarda-hayotim izi.
Taqdirimni men-la bo'lishar,

Olis, achchiq muhabbat hissi.

Xusumatdan xoli dil toza,
Alam, hasrat sezinmas aslo.
Mpviiy ko'kda tiniq yulduzim
Oydin yo'lga boshlaydi illo.

Shoir rus millatiga mansub bo'lsa ham ammo, o'zbek yuragi bilan yashagan ijodkor edi. Uning she'riy to'plamlari qo'lma-qo'l bo'lib, matnlari asosida qo'shiqlar kuylandi, senariylari asosida filmlar namoyish etildi. Uning sermahsul ijodida teranlik, falsafiylik, rang-baranglik, tuyg'ular tiniqligi aks etib turardi. Shoir O'zbekistonda yashab ijod qildi. Bu yurtning osmoni, tuprog'i, havosi, xalqi bir so'z bilan aytganda butun borlig'i shoirga she'r qadar, qalb qadar aziz edi. Shoir 2009-yil Toshkentda vafot etdi. Uning yorqin xotirasiga bag'ishlangan she'riyat kechalari, tadbirlar, uning nomi ostida tanlovlar muntazam o'ztkazilib kelinmoqda. Shoirning o'zbek adabiyotidagi o'chmas izi o'zbek kitobxonlarini hech qachon tark etmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Faynberg A. Ishq degani bir qarashda tuyular oson... She'rlar//Aleksandr Faynberg.-T.: Ijod nashr,2021.
2. Малыгина Г. Поэтический прииск Александра Файнберга. – Т.,2014.
3. <https://n.ziyo.uz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she'riyati/rus-she'riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>.